Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316474

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR VA ERKAKLARNI TENG HUQUQLILIGI TA'MINLASHDA IQTISODIY FAOLLIKNING AYRIM JIHATLARI TAHLILI

Suyarov Zokirjon Ergashevich
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
Yo'ldashaliyev Baxodirjon Iqboljon o'g'li
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti talabasi
Aytboyeva Mashhura Mahmudjan qizi
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ayollarni iqtisodiy faolligini oshirish, xotin qizlarni kamsitilishini oldini olish, oila qadrini muhimligini anglash, O'zbekistonda ayollarni bandligini ta'minlash orqali oilalardagi ijtimoiy muammolarini kamaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, gender muammolari, gender tenglik, ayollar bandligi, ayollar faolligi.

O'zbekistonda ayollar iqtisodiy faolligining yuqori emasligi ayollarning asosan uy-ro'zg'or ishlari bilan band ekanligi bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda davlar budjet tashkilotlarida ishlaydigan ayollarnning ish haqi erkaklarning shu tashkilotlarda ishlab oladigan maoshlari bilan bir xil. Muammo shundaki, xususiy sektor va mulkilikning boshqacha shakllariga asoslangan xo'jalik yurutuvchi korxona va tashkilotlarda ayollar mehnati uchun to'lanadigan ish haqi erkaklarning xuddi shunday xo'jalik yurutuvchi korxona va tashkilotlardagi ish haqidan o'rtacha 40% kamroq maosh oladi. Bugungi kunda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, barcha sohalarda ayollar faolligini oshirishga erishish, mehnat bozorida kamsitishlarni oldini olish va ish haqi tengligini ta'minlash global muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2019−2020 yillarda ayollar bandligi 4,2%ga kamaygan. Bu 2020 yilda ishlaydigan ayollar soni 2019 yildagiga nisbatan 1,3 million nafarga kamayganligini anglatadi. Yuqoridagi ko'rsatkichdan shuni anglashimiz mumkin, yildan yilga kamayotganini ko'rib chiqsak O'zbekistonda ayollar soni 2022-yilda 17 million 608 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda ayollar soni – 18 million 66 ming kishi tashkil etgan hamda 2.2% oshganligi ma'lum bo'lmoqda.

"Noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan, ayollarning mehnatidan foydalanish cheklangan ayrim ishlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Loyihada ayollarning reproduktiv salomatligini asrash va onkologik kasalliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida 21 ta iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mehnat sharoitlari noqulay (zararli va xavfli) bo'lgan 95 ta ishlar turi va kasblar ro'yxati tasdiqlanmoqda. Ma'lum qilinishicha, loyiha qabul qilinishi natijasida "O'zbekiston Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun 393-moddasida belgilangan talablarni ijrosi ta'minlanishiga erishiladi. Noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan, ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar ro'yxatiga tog'-kon qazib chiqarish sanoati, tog'-kon, metallga ishlov berish,

Published: 17.05.2024

Cite this article: Suyarov Zokirjon Ergashevich, Yo'ldashaliyev Baxodirjon Iqboljon o'g'li, Aytboyeva Mashhura Mahmudjan qizi (2024). O'zbekistonda ayollar va erkaklarni teng huquqliligi ta'minlashda iqtisodiy faollikning ayrim jihatlari tahlili. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316474

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

quduqlarni burg‘ilash, neft va gazni qazib olish, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo sanoati hamda boshqa yo‘nalishlardagi ayrim ishlar kiritilgan.

Prezidentimiz 2022-yil 25 iyul kuni «O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi. Farmon bilan Moliya vazirligi tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etish ko’zga tutildi. Kelgusida davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha beriladigan nafaqalar «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich to‘lanadi. Xususiy sektorda ishlayotgan ayollarga davlat tomonidan to‘lanadigan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi miqdori 2 million so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston ayollarni iqtisodiy faolligi pastligiga sabab avvalo ularning uy-ro‘zg‘or ishlari va bola parvarishi bilan to‘liq bandligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston ayollari vaqtining 22 % ni uy yumushlari va bola parvarishiga sarflaydi. Bu ish haqi to‘lanmaydigan mehnat hisoblanadi, erkaklar esa vaqtining 9% ni uy yumushlariga sarflaydi. Uy ishlari bilan bog‘liq katta mas’uliyat o‘zbek ayollarining mansab pillapoyalaridan yuqori ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiladi. O‘zbekistonda ayollar ko‘proq qulay sharoitlarni taklif qiladigan davlat sektorida ishlaydi. Ayollar bandligining tarmoq tuzilmasi xarakterikasi shuki, ular asosan ish haqi past va ish vaqti qisqaroq bo’lgan sohalarda ishlaydi. Masalan: ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalar. Bu sohalarda erkaklar va ayollarning ish haqi o‘rtasidagi faqr deyarli yo’q bo’lgan holda ushbu tizimlarda gender tengligi bilan bog’liq muammolar kuzatilmaydi. Biroq xususiy sektordagi va mulkchilikning boshqa shakllaridagi korxona va tashkilotlarda ayollarga yaratilgan mehnat sharoitlari yaratilgani holda ish vaqti uzoq davom etadi va ularga to’lanadigan ish haqi ayollar bajargan mehnatiga yarasha to’lanmaydi. Bu holat ko’pincha oilalardagi ishlaydigan ayollar ijtimoiy holatini og’irlashtiradi. Maishiy masalalarda nizo va kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Kunbay ish bilan band bo’lgan ayollar ham jamiyatimizda ko’pchilikni tashkil etadi. Bu hol ayniqsa, qishloq ayollari orasida yuqori bo’lib, bu joylarda real ish o’rinlari yaratilmaganligi va mavjud ish joylarining tanqisligi bilan bog’liq. Kunbay ish haqi olib ishlaydigan ayollar joylarda quyidagi ijtimoiy muammolarga duch kelish holatlari uchrab turadi. Bular:

1. Mehnatiga yarasha ish xaqi ololmasligi.
2. Ish vaqtining aniq belgilanmaganligi.
3. Ular uchun zaruriy mehnat muhofazasi tashkil etilmaganligi.
4. Turli kamsitilish va zo’ravonlikka duch kelish havfining yuqoriligi va boshqa sabablarni misol qilib keltirish mumkin.

Mamlakatda ayollar tadbirkorligini, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yuksaltirishga oid bir qator tadbirlarni amalga oshirayotgan siyosiy partiyalar bo‘lsada, ularning ko‘lami, salmog‘i va ayollarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga ta’siri hali davr talablari darajasida emas. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida mamlakatimizda tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Hayotimizning fayzu farishtasi bo‘lgan munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimizga munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, ularni rozi qilish – barcha darajadagi rahbarlarning nafaqat xizmat vazifasi, balki, eng avvalo,

insoniy burchidir”. Ayollar faolligini ko'paytirish uchun eng muhim o'zgaruvchi o'quv taminoti. Ayollar o'quv va professional ta'limga kirish imkoniyatiga ega bo'lsalar, bugungi ish bozorida ta'rixchilik qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallayishlari mumkin. Ayol tasaodudi faoliyatning yanada o'sayotgan holda, ayollar o'simligi vaqtinchalik o'lmagan kuchli hamjihatni amalga oshirishi mumkin. Ma’lum bir davlatda ayollar tadbirkorligi muhitini aniqlovchi bir qator xalqaro standartlar mavjud bo‘lib, uning rivojlanish darajasi “Ayollar tadbirkorligi Global indeksi” deb nomlanadigan davlatlar reytingini belgilab beruvchi xalqaro hujjat bilan aniqlanadi.

2020-yilning may oyida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini qabul qildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi” qonuni, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respubikasining rivojlantirishning beshta ustov yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi hamda O‘zbekiston-2030 strategiyasida tegishli qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyalarda ustuvor yo‘nalishlar singari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalasi ham o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tengsizligini bartaraf etish bo‘yicha ishlar faollashdi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib 25ta sohaga oid qonun hujjatlari qabul qilindi. O‘zbekistonda parlamentdagi xotin-qizlar soni 32% tashkil etadi bu ko‘ratkich orqali mamlakatimiz 190ta davlatlar ichida qaryib 30-o‘rinni egallagan. Gender siyosati muammolari, gender tadqiqotlari, ayniqsa, “Ayollar muammosi” bilan bog‘liq masalalar rasmiy darajada davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlarning mavqeyini oshirish, ayniqsa, ularning huquqlarini qonuniy hujjatlari orqali himoya qilish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Natijalarga ko’ra, yigitlar orasida mehnatni kasbiy taqsimlash masalalarida gender stereotiplariga amal qilish darajasi 70,8 foizni tashkil etadi. Qizlar mehnat taqsimoti bo'yicha ko‘proq liberal g‘oyalarga ega: ular 42,3 foiz kasblarni “erkak” va “ayol” ga taqsimlashdagi stereotiplarni hozirda ahamiyatsiz deb hisoblaydi. Tadqiqot jarayonida gender xususiyatlar asosida o’quvchilarning kasb tanlashdagi afzalliklari aniqlanib olinmoqda.

Xulosa shuki, aslida ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik barcha aqlli jamiyatlarda, jumladan, Islomda ham qoralanadi. Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi. Ayollarni qo’llab-quvvatlash va ularda paydo bo’layotgan yangi fikr va g’oyalarni rag`batlantirish ularda o’ziga bo’lgan ishonchni yanada ortishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T. 1. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O`zbekiston. 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M Yangi O`zbekiston demokratik o`zgarishlar, keng imkoniytlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. “Yangi O`zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. “Yangi O`zbekiston” gazetasi 2021 yil 16-avgust https//yuz.uz/news/

4. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan.

5. https://civil.uz/ozbekistonda-gender-tenglikka-erishish-strategiyasi-bugungi-holat-va-mavjud-muammolar murojaat etilgan sana 09.03.2024

ANDIJON VILOYATIDA AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARINI O’ZGARISH TENDETSIYALARI.

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich
TDIU Andijon fakulteti “ijtimoiy gumanitar fanlari” kafedrasi professor, i.f.d
Mirzaraximov Ibroximjon
“Iqtisodiyot” yo’nalishi 1- kusr talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini baholash, aholi farovonligi, turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ularning daromatini oshirish, aholi daromadlari va iste’mol sarf xarajatlari orasidagi bog’liqliklarni o’rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Aholi daromadlari, nominal daromat, real daromat, iste’molchi budjeti, aholi turmush darajasi, aholi xarajatlari, kambag’allik.

“Mavjud zaxira va imkoniyatlarimizni safarbar etgan holda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1.6 barobarga oshirishga qaratilgan muhim vazifasi oldimizda turibdi. Shu tariqa respublika prezedenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek 2030-yilga borib aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirib, daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar” qatoriga kirishga puxta zamin yaratgan bo’lamiz”.[1]

Ma’lumki har bir insonning moddiy va ma’naviy turmush imkoniyatlari ularning oladigan daromatlari hajmiga be’vosita bog’liq. Aholi daromad darajasi qancha yuqori bo’lsa, uning o’z e’htiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bo’sh vaqtini madaniy tarzda o’tkazish imkoniyatini beradi. Daromat bevosita e’htiyojlarini qondirish manbai sifatida aholi hayotida muhum ro’l o’ynaydi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, 2021 yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murijaatnomasi”, 30-dekabr 2020-yil, №271-272. http://lex.uz.